

RAUF PARFI IJODIDA VATAN VA MILLIY TIL TALQINI

Tolibova Asalbonu
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti
6-4Uzb-25 guruh talabasi

“She’riyat insonning ilkin nafasidir, poyonsiz nafasning moddiylikka aylanishidir, balki”, deb yozadi o‘zbek xalqining iste’dodli shoiri Rauf Parfi.

Ushbu misralar orqali shoirning she’riyatga bo‘lgan muhabbatini bevosita sezish mumkin. Rauf Parfi taxallusi ostida ijod qilgan Tursunali Parfiyev umrining oxirigacha vataniga, ona tiliga bo‘lgan muhabbati, sof tuyg‘ularini she’rlarda madh etdi.

Asrlar davomida rivojlanib kelayotgan til ayni Turon elida borligiga hamd aytayotgan shoir, yosh shoirlarga murojaat qilib, ulug‘ Alisherning qutlug‘ tilida so‘z aytmoqqa shoshilmaslikka buyuryapti. Ayni shu g‘oyadan shoir qay darajada o‘z ona tilini qadrlashi, sevishi, ulug‘lashini bilsak bo‘ladi.

Ul olis quyoshdir kuyunib yonar
Olis xotirotdir o‘chmas falakda
Haqdan, haqiqatdan ko‘ring kim tonar
Dunyoviy alamning tiyg‘i yurakda

Shoir ushbu satrlar ila Vatan va millat xotirasi abadiyligini, quyoshdek yonuvchi haqiqatni madh etadi. Shu bilan birga, inson qalbida dunyo alaming og‘riqlari, zulm va adolatsizliklar tiyg‘i kabi jarohat qoldirishini aytadi. Ya’ni, she’rning asosiy g‘oyasi – haqiqatga sodiq bo‘lish va milliy xotirani unutmaslikdir. Keyingi satrlarda shoir Vatanini mehrli ona, hayot beshigi sifatida tasavvur qiladi. Ammo uning dardu fojialari sabab Vatan endi tobut timsolida tuyuladi. Shoirning yuragi bu darddan eziladi, ammo ruhida isyonkor chaqmoq bor – u zulmga qarshi haqiqat ovozi bo‘lib chaqnashga tayyor. Ushbu misralarda Vatanga muhabbat bilan birga, undagi iztiroblar, erkinlikka tashnalik va adolatsizlikdan qiynalish hissi aks etmoqda.

Hech zot uza bilmas uzilgan jonni
Haqiqatni uza bilmas hech qachon.
Elim, ona tilim ruhimning qoni
Bir imdod so‘rayman sendan onajon.
Chayonzor yo‘lidir borar yo‘llarim

Tanim yonmakdadir ishqsiz ochunda
Ko'klarga to'qilar so'ngak qo'llarim
Oyoqlarim mening tuproq ichinda

Keltirilgan she'riy parcha mazmuni jihatidan lirik qahramonning iztirobli kechinmalarini, uning ona til va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatini, hayotning fojivaviy qirralarini yoritadi.

Birinchi qatlamda inson ruhining sirli, ya'ni anglash mushkulligi ta'kidlanadi: "Hech zot uza bilmas uzilgan jonni, Haqiqatni uza bilmas hech qachon". Bu misralarda lirik qahramonning ichki dunyosi umumiy insoniy holat darajasiga ko'tariladi, chunki qalb iztirobi hech bir inson tomonidan to'liq idrok etilmaydi.

Ikkinchi qatlam esa milliylik va ruhiy ildizlar masalasini yoritadi: "Elim, ona tilim ruhimning qoni". Bu yerda ona til lirik qahramon uchun shaxsiy va ijtimoiy o'zlikni belgilovchi unsur sifatida talqin etiladi. Til – ruhning qoniga qiyos qilinib, milliy mavjudlikning asosi sifatida ko'rsatiladi. Uchinchi qatlamda fojivaviy yakun g'oyasi ilgari suriladi: "Ko'klarga to'qilar so'ngak qo'llarim, Oyoqlarim mening tuproq ichinda". Bu misralar orqali inson hayotining oxiri o'lim bilan tugashi, biroq ruhiy poklanish osmonga, jismiy mavjudlik esa tuproqqa xos ekani ifodalanadi. Demak, shoir inson umrining muqarrar yakuni va abadiy ruhiy qadriyatlar o'rtasidagi falsafiy mushohadani ilgari suradi.

Barchaning boshida birdek beomon,
Maxsus zamonlarning o'lin shamoli,
Buzg'un yigirmanchi asr a'moli...
Mening ona tili, munis, mehribon
Sen Turkiy dunyoning g'olib xayoli
Seni yozajakman, tirilgan jahon

She'ning dastlabki misralarida davr ruhi va tarixiy iztirob tasvirlanadi:

"Barchaning boshida birdek beomon,
Maxsus zamonlarning o'lin shamoli,
Buzg'un yigirmanchi asr a'moli..."

Bu satrlar XX asrning og'ir ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, vayronkor urushlar va millat taqdiriga salbiy ta'sir ko'rsatgan omillarni umumlashma tarzda ifodalaydi. Lirik qahramon zamonning beomonligi, vayronkor oqibatlarini falsafiy mushohada orqali ochadi.



Keyingi misralarda esa ona til va turkiy dunyo timsoli yuksak poetik darajada ifodalanadi:

“Mening ona tilim, munis, mehribon,
Sen turkiy dunyoning g‘olib xayoli...”

Bu yerda ona til “munis, mehribon” sifatlari bilan tasvirlanib, shaxsiy mehr manbai sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, u turkiy dunyoning g‘olib xayoli, ya’ni kelajakka ishonch, milliy uyg‘onish va birlik ramzi sifatida ko‘rsatiladi. Demak, til faqat milliy qadriyat emas, balki umummilliy g‘oya, turkiy dunyo uyg‘onishining tayanchi sifatida qaraladi.

She’rning yakuniy qismi:

“Seni yozajakman, tirilgan jahon”

Bu satrda til abadiyatga daxldorlik darajasiga ko‘tariladi. Shoir ona tilini “tirilgan jahon” bilan qiyoslab, uni yangilanish, ma’naviy tiklanish va umuminsoniy qadriyatlar bilan tenglashtiradi.

Rauf Parfi ijodi, xususan, keltirilgan she’riy parchalarda lirik qahramon zamonning og‘ir oqibatlari, XX asrning vayronkor jarayonlarini eslab o‘tadi va shunday sharoitda ham ona tilining abadiyligi, mehribonligi hamda turkiy dunyo birligidagi o‘rnini yuksak badiiy obrazlarda ifodalaydi. Shoir ona tilni shaxsiy ruhiy tayanch emas, balki butun bir millatning, qolaversa, turkiy xalqlarning g‘olib xayoli va tirilgan jahon timsoli sifatida talqin etadi. Demak, asar umumiy mazmuni jihatidan insoniyat tarixidagi og‘ir sinovlarga qaramay, ona tilning milliy uyg‘onish, birlik va ma’naviy tiklanish manbai ekanini ta’kidlaydi.